

Date: 17<sup>th</sup> November-2024

**PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJATLARINI KO'RIB CHIQUISH FAOLIYATI TUSHUNCHASI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**A.R.Abdug'afforov**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati kafedrası o'qituvchisi

**Maxmudov Hikmatjon Qudratjon o'g'li**

312-guruh kursanti

**Annotatsiya:** Ushbu maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, profilaktika inspektorining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish faoliyati tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari, tashkiliy-huquqiy asoslari, ushbu faoliyatni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari. Shuningdek, profilaktika inspektorlari jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlarini ko'rib chiqish faoliyatida e'tibor qaratishi lozim bo'lgan jihatlari, ushbu faoliyatda namoyon bo'layotgan muammo va kamchiliklar hamda muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar bayon e'tilgan.

**Аннотация:** Актуальностью темы данной статьи является понятие деятельности профилактического инспектора по рассмотрению обращений физических и юридических лиц, ее особенности, организационно-правовые основы, основные направления совершенствования этой деятельности. Кроме того, описаны аспекты, на которые следует обратить внимание инспекторам по профилактике в деятельности по рассмотрению обращений физических и юридических лиц, проблемы и недостатки, проявляющиеся в этой деятельности, а также предложения и рекомендации по устранению проблем и недостатков.

**Ilmiy maqolaning dolzarbligi:** " Profilaktika inspektorining asosiy xizmat faoliyat yo'nalishlaridan biri bu – jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish hisoblanadi. Profilaktika inspektori har kunlik xizmat faoliyati jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq vazifalarni bajaradi.

SHu o'rinda murojaat qilish huquqi haqda to'xtalib o'tish joiz. Chunki, fuqarolarning murojaatlari ularning uzviy va asosiy huquqlaridan biri bo'lib, shaxs har qanday holatda ham murojaat qilish huquqiga ega bo'ladi.

Murojaat shaxsning o'z huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarni amalga oshirish, davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarni bayon etish hamda buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarni himoya qilish to'g'risidagi murojaati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasiga ko'ra, har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart.

Jismoniy va yuridik shaxslarga davlat organlariga yakka tartibda yoki jamoa bo'lib murojaat etish huquqi kafolatlangan.

Profilaktika inspektorlari o'z xizmat faoliyatida fuqarolarning murojaatlarini qabul qilish va ko'rib chiqishda amaldagi qonun hujjatlariga tayanadi.

Profilaktika inspektorlari o'z xizmat xonalarida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish tashkil etiladi. Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish davlat organining rahbari yoxud boshqa vakolatli shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Buning uchun davlat organlarida maxsus tarkibiy bo'linmalar tashkil etilishi mumkin, qabul uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar belgilanadi.

SHuningdek, profilaktika inspektorlarining jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish belgilangan kun va soatlarda, qabul qilish jadvallariga muvofiq o'tkaziladi.

Profilaktika inspektorlari qabul qilish jadvallari va uni o'tkazish vaqti, joyi hamda qabulga oldindan yozilish to'g'risidagi axborot, shuningdek qabul qilish tartibi davlat organlarining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilish, shuningdek ularning ma'muriy binosida hamma kirishi mumkin bo'lgan joylardagi stendlarga yoki boshqa texnik vositalarga joylashtirish orqali manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkaziladi.

Profilaktika inspektorlari shaxsiy qabul davomida davlat organining rahbari qaroriga ko'ra hamda murojaat etuvchining yozma roziligi bilan maxsus texnika vositalari (audio- va video yozuv, shuningdek fotosuratga olish) qo'llanilishi mumkin.

Murojaat etish huquqidan foydalanilayotganda jismoniy shaxsning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeiga, shuningdek yuridik shaxslarning mulk shakli, joylashgan yeri (pochta manzili), tashkiliy-huquqiy shakllariga va boshqa holatlariga qarab kamsitishga yo'l qo'yilmaydi.

Murojaat deyilganda O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligida o'rnatilgan protsessual qoidalarga binoan tergovga qadar tekshiruv yoki dastlabki tergov harakatlarini olib borish shart bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarning jinoyat va hodisalarga oid arizalari, xabarlari va boshqa ma'lumotlariga aytiladi.

Profilaktika inspektorining fuqarolarning murojaatlarini qabul qilish deyilganda - O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual Kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining "Ichki ishlar organlarida jinoyat va hodisalarga oid arizalar, habarlar hamda boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatga olish, ko'rib chiqish va hisobini yuritish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 180-sonli buyrug'i talablariga muvofiq ichki ishlar organining vakolatli mansabdor shaxsi tomonidan jinoyat va hodisalar haqidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatga olish ishlarini amalga oshirishga doir harakat tushuniladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari yuzasidan ro'yxatga olish hujjatlari quyidagilar:



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

A) jinoyatlar to'g'risidagi ariza va xabarlarini hisobga olish 1-shakl kitobi,

B) ichki ishlar organlariga telefon, telefaks, telefonogramma, telegramma, radiogramma shaklida hamda qo'riqlash va yong'in signalizatsiya uskunalarining ishlab ketishi hamda hoisalar haqidagi boshqa signallarga oid kelib tushgan ma'lumotlarni hisobga olish 2-shakl jurnali

V) jinoyat va hodisalarni ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi bildiruv taloni kitobchasi

G) jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish qarori to'g'risidagi matiriallarni hisobga olish jurnali

Profilaktika inspektorlarining eng asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish bo'yicha faoliyati bo'lib, uni amalga oshirishni belgilab beruvchi va tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ularning miqyosi, yuridik kuchi va ularni qabul qiluvchi sub'yektlarning vakolat doirasiga qarab quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- 2) O'zbekiston Respublikasi qonunlari;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari;
- 5) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- 6) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining shuningdek, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan birgalikda qabul qilgan buyruqlari hamda qarorlari;
- 7) mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir qarorlari;
- 8) Toshkent shahar va viloyatlar IIBB , shahar, tuman IIB larining boshliqlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida chiqarilgan buyruq va farmoyishlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, ichki ishlar organlarini aholining ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish, ularning fuqarolar, jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda, o'zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlashini ta'minlash, mahallalar, aholi turar joylari va butun yurtimizda qonun ustuvorligi, tinchlik-osoyishtalikni yanada mustahkamlash maqsadida: 2023-yilning 20-yanvar kuni qabul qilingan "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-sonli qarorning qabul qilinishi natijasida profilaktika inspektorlari jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlarini ko'rib chiqish faoliyatida bir qancha ijobiy o'zgarishlar namoyon bo'lmoqda hamda profilaktika inspektorlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish va ularni qonuniy hal etish mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Darhaqiqat, fuqarolarning ariza va shikoyatlari hal etilsa, aholining amaldagi qonunlarga, murojaatlarni ko'rib chiqqan davlat idorasiga bo'lgan ishonchi yanada mustahkamlanadi.



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlarini ko'rib chiqish faoliyati bo'yicha amalga oshirilayotgan tegishli chora-tadbirlarga qaramasdan, mazkur yo'nalishda quyidagi muammo, kamchiliklar aniqlandi:

- ayrim ichki ishlar organlarida fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashda qonunda belgilangan muddatlarga qat'iy rioya qilmaslik, arizalarni atroflicha ko'rib chiqmasdan yuzaki hulosalar tayyorlash, og'zaki murojat bilan kelganlarni jadval asosida qabul qilmaslik holatlari uchrab turibdi;

- joylarda mas'ul hodimlar fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash sohasida qonunchilikdagi yangiliklardan yetarli darajada habardor emasligi, bu borada tegishli targ'ibot va o'qitish ishlari talab darajasida tashkil etilmaganligi va boshqalar.

Yuqoridagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish uchun jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagilar taklif qilinadi:

- ichki organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarda bila turib yolg'on ma'lumotlar bayon etilganligi aniqlansa, murojaatlarni ko'rib chiqishga sarflangan xarajatlar jismoniy va yuridik shaxsdan sudning qaroriga ko'ra undirib olinishi haqida hamda "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunni aholi o'rtasida keng targ'ib qilish;

- profilaktika inspektorlaridan hizmat xududida barcha turdagi ma'muriy huquqbuzarliklarni aniqlash, fosh etish talab qilinib ko'rib chiqish vakolatiga kirmaydigan huquqbuzarliklar bo'yicha ularning bayonnoma tuzishiga oid O'zbekiston Respublikasi MJtKga qo'shimcha kiritish;

- zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiy etayotganligini hisobga olib profilaktika inspektorlarining murojaatlarni qabul qilish bo'yicha telegramda kanallarini ochish;

